



TARBIYA JARAYONLARIDA MAQOLLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Elmurodova Lobar

Toshkent Xalqaro Kimyo universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14005373>

Bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma'naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g'oyat muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Shu ma'noda, mutaffakir Abdurauf Fitratning: "Bu dunyo kurash maydonidir. Bu kurashning quroli sog'lom jism-u tan, o'tkir aql va yaxshi axloqdir", - degan so'zlarida chuqur ma'no bor. Farzandlarimizning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi bizning kelgusi faoliyatimizda eng muhim masala bo'lib qoladi. O'zbekistonda yashayotga har bir o'g'il-qiz davlatimiz va jamiyatimizning e'tibori va amaliy g'amxo'rlikidan chetda qolmaydi".

Prezidentimizning yuqoridagi fikrlari ham ta'lim olish har doim va har joyda kerakligini, O'zbekiston yoshlarini yuksak ta'lim va tarbiya egasi qilib tarbiyalash yo'lida oqilona sa'y-harakatlar olib borilayotganligini isbotlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ta'lim va tarbiya muhim ekan, albatta buning tub zamirida xalq og'zaki ijodi ham yetakchi o'rin egallaydi. Xalq og'zaki ijodi - bu oddiy xalq tomonidan yaratilgan asarlar majmuasi bo'lib, uning muallifi bo'lmaydi, u xalq ommasi tomonidan yaratilgan og'zaki ijodi namunalari. Xalq og'zaki ijodi "folklor" ham deb ataladi. "Folklor" so'zi inglizcha so'z bo'lib "folk" - xalq, "lore" - "donolik", "donishmandlik" so'zlaridan olingan bo'lib "xalq donoligi", "xalq donishmandligi" degan ma'nolarni anglatadi.

Folklor atamasini ilk bor 1846-yilda Vilyam Toms ilmiy jihatdan qo'llagan. Folklor deganda ma'lum bir millatga mansub asrlar davomida xalq tomonidan yaratilgan san'at namunalari: xalq kuylari, xalq o'yinlari, dostonlar va marsiyalar, maqol, topishmoq, tez aytishlar tushuniladi. Dunyodagi eng qadimgi folklor namunasi bu - "Avesto" hisoblanadi. Odamlarning aniqlashicha bu yozma manbani yaratish jarayonlarida bizning ota-bobolarimiz ham ishtirok etgan ekan. "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustamxon" kabi xalqimiz og'zaki ijodi qahramonlari asrlar davomida tillardan tushmay, baxshilar tomonidan ijro etilyapti va badiiy ijod ta'siriga o'z hukmini o'tkazib kelyapti.

Folklorshunoslikda yaratilgan badiiy asarlarning janrlari har doim muhim bo'lib kelgan. Xalq dostonlari, ertaklar, qo'shiqlar, maqol, matal, askiya, lof, topishmoq va boshqalarning bir-biridan farqi - bu ularning qanday janrlarda yaratilganligidadir.





1. Epik-yunoncha “epos”-rivoyat,hikoya,qo’shiq so’zidan iborat bo’lib,so’z san’atida biror hikoya,voqeani bayon qilish yoki hayotiy lavhani ifodalash ma’nosini anglatadi.”Epos”deganda, aniq bir voqeani badiiy tarzda hikoyalash tushuniladi.O’zbek xalq og’zaki ijodidagi mif,afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, tarixiy qo’shiqlar,terma,doston kabi janrlarni epik asarlar deb atash mumkin.Shu bilan birga,maqollar,topishmoqlar kabi atamalar bilan yuritiladigan asarlarni ham professor B.Sarimsoqov “maxsus tur” deb ataydi.

2.Lirika-inson hayotida,tabiatda ro’y bergan biror hodisa,lavhalardan ta’sirlanish natijasida unga nisbatan paydo bo’lgan munosabatni ichki kechinmalar,his-tuyg’u vositasida ifodalashdir.Lirika o’zida ichki kechinmalarni ifodalash xususiyati bilan epik asardan farq qiladi.

3.Drama.Bu so’z “harakat” ma’nosini bildirib,bu turdagi asarlar sahna bilan bog’liq bo’ladi.Bu asarlarning ijrochilari faqat gaplari bilangina emas,nutqlaridagi intonatsiyalari,yuz,bosh,qo’l harakatlari bilan obrazga kiradilar. Xalq og’zaki ijodi,ya’ni folklorda o’sha xalqning poetik o’tmishi,etnik tarixi,urf-odatlar,an’analari,kelajakdagi niyatlari va shu bilan birga mehnatsevarlik, vatanparvarlik, do’stlik, ota-onaga hurmat,kichiklarni izzatlash, kitobsevarlik kabi tarbiyaviy ahamiyatlar o’z aksini topadi.

Xalq og’zaki ijodining eng ko’p tarqalgan,barcha yoshdagi insonlar deyarli har doim foydalanadigan turi-bu maqoldir. Maqol xalq og’zaki ijodining eng keng tarqalgan va yetakchi o’rinda turadigan janri hisoblanadi.Ota-bobolarimizning uzoq yillar davomida ko’rgan-kechirganlari asosida yuzaga kelgan ixcham fikr,xulosa so’z-maqoldir.Maqolda fikr aniq,xulosa tugal,ifoda lo’nda bo’lishi bilan birga,unda ibratli fikr aytilishi lozim.Maqollar har bir xalqning tarixi,ijtimoiy tajribasi,aql-idroki,mehnati va kurashining badiiy ifodasi bo’lib,uzoq yillardan buyon yaratilib kelinmoqda va ularda ham mehnatkash xalqning orzu-umidlari,o’y-fikrlari,o’zaro turmushdagi munosabatlari,insoniylik hislatlari aks etgan bo’ladi.

Maqol va matallarda, naql va barqaror iboralarda xalqning hayotiy muammolari-mehnat-mashaqqati, g’am-anduhi,rohat-farog’ati, muvaffaqiyat va mag’lubiyati, rasm-rusumlari, hamma hammasi aks etib turadi.Bu ko’hna xalq ijodi qachon va qanday vaziyatda,kim tomonidan yaratilganligini aniq aytish qiyin.Har holda bu sodda va murakkab,turg’un va barqaror iboralarni,ixcham va lo’nda,chuqur mazmunli naqlarning yaratilishida oddiy ijodkor xalq bilan birga olim-u ulamolarning,fozil-u fuzalolarning,xassos shoirlarning hissalar haam katta bo’lganligi shubhasizdir.





Odobiyylik va axloqiylik,ezgulik va insoniylik kabi ma'naviy qadriyatlar haqidagi xalq maqol va naqlari donishmandlar hikmatlaridan iborat majmualarni o'qir ekanmiz,durdona fikrlar,azaliy hikmatlar,ma'naviy qadriyatlarimizning sharqona lo'nda va yorqin ifoda etilgan bitiklarga nisbatan o'zgacha bir ishtiyoq uyg'onadi.

Maqollar bolalarni to'g'ri,mantiqiy fikrlashga,maqsadni ixcham,aniq va lo'nda bayon etishga o'rgatadi,ularning badiiy didini oshiradi,tarixiy hodisalarning mohiyatini yaxshiroq,chuqurroq payqab olishga yordam beradi.Bundan tashqari,maqollar ona tilining eng nozik,badiiy xususiyatlarini bilishga va so'z boyligini ham oshirishga ko'maklashuvchi bir vosita sifatida xizmat qiladi. (Mamasoli Jumaboyev).

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki,deyarli har bir maqolning tub negizida odob yotar ekan.E'tibor beramiz:

Bola aziz,odobi undan aziz, Odobning boshi- til. Inson odobi bilan,Osmon oftobi bilan go'zal. To'g'ri o'zadi, Egri to'zadi.Bu kabi maqollarni uzoq davom ettirsak bo'ladi.

Bolaning yetuk kamol topishida salomning o'rne birinchi o'rinda turadi.Ko'plab ertaklarda uchraydiga yovuz maxluqlar-devlar,jin-ajinalar huzuriga odamlar borib,salom berganida -Saloming bo'lmaganida ikki yamlab bir yutardim,-deb aytadi.Bundan ko'rinib turibdiki,salom berish orqali ham insonlar yovuzliklardan omon qolyapti."Avval salom keyin kalom","Odobning boshi salom"kabi xalq maqollari ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

Har bir bola bilimli,uquvli,kasb-hunarli bo'lib voyaga yetishi lozim.Bola bu kabi tarbiyalarni eng birinchi navbatda oilasidan oladi."Oila-tarbiya o'chog'idir",-deb bejizga aytilmaydi.Ko'plab ibratli maqollar ham yaxshi kamol toptirish uchun ham juda ko'p keladi.

Do'st bilan obod uying.

Mehnat,mehnatning tagi rohat.

Mehnatdan kelsa boylik,

Turmush bo'lar chiroylik.

Vatan ostonadan boshlanadi.

Bolali uy bozor,

Bolasiz uy mozor.Bu maqollar hech qanday bramziy ma'no anglatmay o'z ma'nosida tushunishimiz kerak.Ko'chma ma'noda qo'llaniladigan,ramziy ma'no kasb etadigan bir qancha maqollar ham mavjud:Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi.Olmaning tagiga olma tushadi.Ot aylanib qozig'ini topadi .Qazisan,qartasan,asl zotinga tortasan.Bu yerda gap hech qanday qarg'a yoki





qazi-qarta haqida emas ,balki bir millat,bir elat bo'lib yashash,nasl-nasab surish haqida ramziy ma'nolarni ifodalagan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz lozimki,ota-bobolarimiz tomonidan ming yillar davomida qolipga solinib kelgan xalq og'zaki ijodi janri bo'lmish maqollarning farzand kamoloti uchun o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.Mirziyoyev."Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"-T:"O'zbekiston"-2022.250-bet
- 2.O.Madayev;"Xalq og'zaki poetik ijodi"-T:"Sharq",2010.30-bet.
- 3."Maqollarda nutq odobi".Rustamova Salomat."Science and innovation".UIF-2022:8.2/ISSN:2181-3337
- 4.Mamasoli Jumaboyev."Bolalar adabiyoti"-T,-2011.

